

**OTA-ONALARDA PEDAGOGIK SAVODOXONLIKNI  
SHAKLLANTIRISHNING USUL VA USLUBLARI**

*O'qituvchi: I. Xoldorova  
2 kurs magistrant Olamnazarova Feroza*

**Annotatsiya :** ushbu maqolada ota-onaning pedagogic savodxonligini shakllantirishning usul va uslublari haqida . Bugungi kunda oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansada ota-onaning pedagogic savodxonligi ohsayotgani haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** oila, pedagog, farzand, ota-ona, tarbiya, savodxonlik, shakllantirish, usul, uslub.

Ma'nnaviyat, ta'lif-tarbiya tarixidan ma'lumki, inson shaxsining asosiy hislatlari va sifatlari oilada tarkib topadi. Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksaltiruvchi, yuksak bosqichga ko'taruvchi, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodni tarbiyalab yetishtiruvchi, avlodlar o'rtasida ma'nnaviy-axloqiy uzviylikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy organizm hisoblanadi.

Pedagogika fanlari doktori, professor A.K.Minavarov ta'kidlashicha "Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiyligida pedagogik bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir".

Ota-onalarni pedagogika fani yutuqlari bilan tanishtirish, ularning mahoratini oshirishga yordam berish, bolalar ta'lifi-tarbiyasiga oid bilimlar bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Pedagogik savodxonlik muammoi faqat ota-onalarning ishi bo'lib qolmasdan, balki jamiyatning barcha a'zolarining umumiyligi ishi, keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Shuning uchun ham mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan davlat dasturi va qarorlarda ta'kidlanganidek, barcha davlat va nodavlat tashkilotlari mehnat jamoalari, umuman ma'nnaviy sog'lom, ruhan boy, mustahkam oilani tarkib toptirish, oila, onalar haqida, mamlakatimiz kelajak – istiqlolli bo'lgan bolalar haqida g'amxo'rlikni kuchaytirish zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash to'g'risidagi mas'uliyatini oshirishni talab qiladi.

Oilada amalga oshiriladigan barcha ta'lif-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ko'p jihatdan ota-onalarning pedagogik savodxonligi darajasiga bog'liqligi asoslangan. Jadid pedagoglari onalar va ayollarni tarbiyachilik ishiga tayyorlash, ularni tarbiyaning mezon va uslublari bazasidan o'qitish zaruriyatini ko'targan edilar.

Faqat pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasiga oid bilimlarni targ'ib qilish orqaligina oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash mumkin. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalliy, mintaqaviy shart-sharoitlarni hisobga olib, ota-onalarni ta'lif-tarbiyaga oid bilimlar tizimi bilan ota-onalarni qurollantirish lozim.

Ota-onalar pedagogik savodxonligini shakllantirish masalalariga oid tadqiqotlarda (I.V.Grebennikov, A.I.Minavarov, N.I.Sobolev va boshqalar) pedagogik-psixologik bilimlar mazmuni doirasini aniqlashga harakat qilingan.

Tajriba-sinov ishlari davomida ota-onalar pedagogik savodxonligining mazmunini aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalandik:

- A) Ota-onalar pedagogik savodxonligi masalalariga oid ilmiy, uslubiy manbalarni o'rganib tahlil etish.
- B) Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyaviy ishlar rejasining "Ota-onalar bilan ishlash" bo'limi materiallari bilan tanishuv.
- V) Ota-onalar o'rtasida so'rovnama o'tkazish orqali ularning farzand tarbiyasi uchun kerak bo'ladigan zaruriy pedagogik bilim, tajribalarini aniqlash.

Yuqoridagi va boshqa fikr-mulohazalardan kelib chiqib ota-onalar pedagogik savodxonligi tarkibiy qismlarini aniqladik.

Bunga:

- 1. Pedagogika bilim asoslari.
  - Pedagogika ta'lif-tarbiya ilmi.
  - Barkamol shaxs hislatlari
  - Farzandni shakllantirish pedagogik omillari
  - Farzand rivojlanishining yosh davrlari.
  - Farzandning o'ziga xos xususiyatlari.
  - Farzandni tarbiyalash usul va uslublari.
  - Farzandni o'qitish usul va uslublari.
  - Farzand tarbiyasida oila, maktab, mahalla hamkorligi.
  - Ota-onalarning farzand oldidagi burch va vazifalari.
  - Farzandning kelajak va istiqboli.
- 2. Pedagogik tajriba: (ko'nikma va malakalar).
  - Farzand oldiga maqsad va vazifalar qo'ya olish.
  - Farzandni ilm, kasb-hunar egallashga qiziqtira olish.
  - Farzandga ruhiy ta'sir eta olish.
  - Farzand bilan muomala qila olish.
  - Oilada kun tartibini o'rnatna olish.
  - Tarbiya natijalarini oldindan ko'ra bilish.
  - Oilada o'z obro'sini saqlay olish.
- 3. Pedagogik munosabat asoslari.
  - Oilada er - xotin teng huquqligi
  - Ko'p bolali oilada farzand tarbiyasi.
  - Nikohsiz oilada bola tarbiyasi.
  - To'la bo'lмаган oilada bola tarbiyasi.
  - Bolani taqdirlash va jazolash.
  - Oilada er, xotin va farzand burchlari.
  - TV, radio, axborot vositalarining ta'lifi va tarbiyaviy imkoniyatlari.
  - Oilada bosh va kichik farzand tarbiyasi.
    - Maktab, mahalla, bolalar ijtimoiy harakatlari tashkilotlarining ta'lif-tarbiyaviy faoliyatiga munosabati.

Tajriba-sinov ishlari keyingi bosqichida pedagogik bilim, tajriba va munosabatlarni yosh ota-onalarga berish uchun uni dasturlashtirishga harakat qildik. Bunda biz quyidagi asosiy tamoyillarga rioya etdik.

1. Pedagogik savodxonlik – xalqimizning milliy va umumbashariy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lganidan u pedagogik tajriba va munosabatlar majmuidan ibratligidan kelib chiqish.

2. Ota-onalarning yoshi, umumta’lim tayyorgarlik darajasi, kasbiy hislatlarini hisobga olish.

3. Ota-onalar farzandlarining yosh va o‘ziga xos rivojlanish davrlarini hisobga olish. Masalan, “Kichik maktab yoshdagи o‘quvchilar ota-onalari pedagogik savodxonligini tarkib toptirish dasturi”; “O‘rta yoshli maktab o‘quvchilari ota-onalari pedagogik savodxonligini tarkib toptirish dasturi”; “Katta yoshli mакtab o‘quvchilari ota-onalari pedagogik savodxonligini shakllantirish dasturi” va hakazo.

4. Mamlakatimiz va dunyo davlatlarida amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi tub islohotlar natijasida ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy o‘zgarishlarni aks ettirish.

5. Pedagogika, psixologiya, metodika fanlari nazariyasi va amaliyotida keyingi yillarda vujudga kelgan yangicha g‘oya, kontseptsiyalarni hisobga olish.

6. Xalqimizning o‘ziga xos ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari, qadriyatlar, maktablaridan samarali foydalanish.

Tajriba ishlaring navbatdagi bosqichida “Ota-onalar pedagogik savodxonligini shakllantirish dasturi” tarkibini aniqlashga muvofiq bo‘ldik. U ikki qismdan iborat bo‘lishi kerak deb hisobladik.

I Oila tarbiyasining umumiyl muammolari.

1. Bolalar tarbiyasi umum davlat ishi.
2. Barkamol shaxsni tarbiyalashda oilaning o‘rni.
3. Ota-ona birinchi tarbiyachi.
4. Bolalar tarbiyasida pedagogik hamkorlik.
5. Oilada bolalarni tarbiyalash usullari.
6. Oilada bolalarni bilim olishlariga yordam berish usullari.
7. O‘zbek mutaffakkirlari bolalar tarbiyasi haqida.
8. Dunyo salohiyatiga ega bo‘lgan millatlar oilasida bolalarni tarbiyalash tajribalari.

II. Har bir sinf o‘quvchilari ota-onalari uchun mo‘ljallangan pedagogik savodxonlikni shakllantirish dasturi.

Biz quyidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ota-onalari pedagogik savodxonligini shakllantirish dasturini beramiz.